

## SUG‘ORILADIGAN YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASHDA VERTIKAL DRENAJ QUDUQLARNING O‘RNI

*Sherboyev Zohid Xonqulovich*

*“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETining Qarshi irrigatsiya  
va agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi*


**Annotatsiya.** Maqolada yer osti sizot suvlarining ko‘tarilishishi natijasida yerlarning meliorativ holatiga salbiy ta‘sir etishi va bu holatning oldini olish maqsadida vertikal drenaj uskunalaridan foydalanishning samaradorlik holatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** sizot suv, meliorativ obyektlar, vertikal drenaj quduq, kollektordrenaj tarmoqlar, meliorativ nasos stansiya.

Ma‘lumki, Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 28 noyabrdagi 261-sonli qaroriga muvofiq sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha loyihalarni shakllantirish, ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish, tasdiqlash va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida Nizom ishlab chiqilgan bo‘lib, bu qarorning mazmun mohiyati respublikamizda yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifati, undagi ekinladigan meva va sabzavotlarning unumdorligi asosan, yerlarning meliorativ holatiga bog‘liqligi va uni yaxshilash bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlarning muqaddimasi bo‘lib xizmat qildi. Nizomda asosiy tushunchalardan meliorativ obyektlar, drenaj (ochiq va èpiq), èpiq gorizonta drenaj, vertikal drenaj qudug‘i ochiq drenaj, kollektor magistral (viloyatlararo) kollektor tumanlararo kollektor xo‘jaliklararo kollektor-drenaj tarmog‘i, meliorativ nasos stansiyasi (agregat), kuzatuv tarmog‘i, meliorativ obyektlarni ta‘mirlash va tiklash, meliorativ obyektlarni joriy ta‘mirlash, meliorativ, obyektlarni, mukammal ta‘mirlash, meliorativ obyektlarda avariya-tiklash va ta‘mirlash, meliorativ obyektlardagi oldindan ko‘rib bo‘lmaydigan ishlar, meliorativ obyektlarni rekonstruksiya qilish va qurish, meliorativ kadastr, tizimli loyihalar kabilar kiritildi. Shunday ekan, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash quyidagi prinsipial qoidalar asosida amalga oshirilishi soha mutaxassislariga ma‘lum: -meliorativ tarmoqlarning samarali ishlashini a‘minlovchi mexanizmni sifat jihatidan takomillashtirish hamda kollektor-drenaj tarmoqlari orqali drenaj va tashlama suvlarni normativ miqdorda chiqarib tashlash; -sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash muammosi umuman kompleks holda, irrigatsiya-drenaj tizimi bilan birgalikda, eng kam ekologik oqibatlar bilan yuqori hosil olishga qaratilgan sug‘orishning yuvish rejimi va sug‘oriladigan yerlarning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tizimi yaratilishi sifatida qaralishi zarur; -sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tizimini


yaxshilash bo'yicha barcha chora-tadbirlar tashkiliy-texnologik, iqtisodiy va qurilish-texnik choralarni ko'zda tutgan holda, suvni tejash orqali, shuningdek aniq tabiiy-texnik tizimlarda maqbul meliorativ rejimlarni barpo etish yo'li bilan iqtisodiy maqsadga muvofiqlikni hisobga olgan holda asoslanishi kerak; -sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimi har xil tabiiy shart-sharoitlar uchun talab qilinadigan tuproqqa ishlov berish texnologiyalarini ta'minlovchi agrotexnik usullarni – takroriy va oraliq ekinlar ekishni joriy qilib almashlab ekishni tashkil qilish, tuproq unumdorligini oshiruvchi dukkakli don ekinlari ekishni rag'batlantirish, aralash ekinlarni madaniylashtirib, tuproqni mulchalashni o'z ichiga olishi kerak; -sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga va unumdorligini oshirishga yo'naltirilgan ekinlarni almashlab ekishning yuqorida ko'rsatib o'tilgan tizimini amalga oshirish, suvni hisobga olish, rejalashtirish hamda suvni sug'orish va kollektor drenaj tarmog'ida taqsimlashning mukammal tizimini yaratish, kollektor-drenaj suvlaridan konturlar ichida sug'orishga ishlatishda foydalanish, sho'rlangan yerlarning sho'rini yuvishni takomillashtirish yo'li bilan ta'minlanishi kerak; -meliorativ va tabiiy-xo'jalik shart-sharoitlari o'zgarishlari-ni hisobga olgan holda qo'llaniladigan meliorativ chora-tadbirlar kom-pleksiga tuzatish kiritish; -irrigatsiya-melioratsiya tizimining ishonchli ishlashini hisobga olish va baholash, ularni ta'mirlash, tiklash, qurish va rekonstruksiya qilish zaruriyatini aniqlash sug'oriladigan yerlarning maqbul meliorativ holatini ta'minlash va saqlash nuqtai nazaridan amalga oshirilishi kerak. Meliorativ chora-tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligi va navbatliligi hududning meliorativ, ekologik va boshqa tabiiy-xo'jalik shartsharoitlari hisobga olingan holda belgilanadi. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturining tasdiqlangan parametrlari asosida har yili meliorativ obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va tiklash loyihala-rining, loyiha-qidiruv va ilmiytadqiqot ishlarining, meliorativ va boshqa texnika, mashinalar, uskunalar va boshqa mexanizatsiya vositalari sotib olishning, kelgusi yildagi boshqa meliorativ choratadbirlarning hududiy aniq dasturlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Hududlarning meliorativ, ekologik va boshqa tabiiy xo'jalik shart-sharoitlarining o'zgarishi mumkinligi, meliorativ obyektlarning asoslashlari va ustuvorligi hisobga olingan holda Jamg'arma Kengashining qarori bilan Davlat dasturiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Yuqorida ta'kidlangan vazifalar va Davlat dasturida amalga oshiriladigan ishlarning bir qismini zamonaviy texnik vositalar erdamida amalga oshirish ham bir yo'nalish bo'lib, Qashqadare viloyatidagi yerlarning meliorativ tizimini yaxshilash maqsadida kertikal drenaj uskunalari distansion boshqaruv tizimini ishlab chiqish va ulardagi texnologik jaraenlar tahlilini obyektlarda qo'llanilishini tadbiq etish masalasi bizning oldimizga qo'ygan asosiy vazifalarimizdan biridir. Yerlarning meliorativ tizimlarini yaxshilash uchun odatda vertikal drenaj nasoslardan foydalaniladi. Vertikal drenaj uskunasini o'z navbatida suv

tubida joylashtiriladi, va uning suv tortish qismi agregatning pastki qismida joylashgan bo‘ladi. Suv tortish qismi oldida agregat tortadigan suvning tozaligini ta’minlovchi filtr o‘rnatiladi.



1-rasm. Vertikal drenaj uskunasi o‘rnatilish sxemasi

Vertikal drenaj uskunasi avtomatik rejimda ishlashi ta’minlanadi. Uskuna quduqqa ma’lum hajmdagi suv yig‘ilgandan so‘ng, avtomatik tarzda ishga tushiriladi. Suv bosimi va balandligi uskuna ishlab chiqarish markasi av quvvatiga bevosita bog‘liq. Tizimning avtomatik ishlashini ta’minlashda odatda vertikal drenaj uskunasi uchun qalqovuchli datchiklardan foydalaniladi, bu esa o‘z navbatida uskunani himoya va roslashini ta’minlashga erdam beradi. Qalqovuchli datchik drenaj uskunasi ishga tushishi va to‘xtashini ta’minlovchi hamda rejimga mos holda sozlanadi.





2-rasm. Vertikal drenaj uskunasining elektr-ulanish sxemalari.

Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, vertikal drenajlar qurilish me'òrlari va normalari (SNIp) ga amal qilingan holda o'rnatiishi lozim. Bundan tashqari, tizimdagi o'rnatiladigan vertikal drenaj uskunalari ma'lum masofada va son jixatdan ham qo'yiladigan talablarga javob berishi lozim. Drenaj uskunalarning ishlash jaraèidagi suv sathining ortishi va pasayishini roslash avtomatlashtirilgan texnik vositalar èrdamida nazorat qilishi maqsadga muvofiqdir. Tizimdagi avtomatlashtirishni boshqarish uchun jaraèning matematik modelini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Drenaj uskunasini kapital va joriy ta'mir vaqtida erkin va qulay ishlash tizimi bo'lishi lozim. Konstruktiv parametrlari, uskunaning o'rnatiishi filtrlarni o'rnatish, truba quvurlarning o'lchamlari hisob kitoblari asosan bajarilishi talab etiladi.

### Foydalanilgan adabiètlar ro'yxati

1. Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 28 noyabrdagi 261-sonli qaroriga muvofiq sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha loyihalarni shakllantirish, ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish, tasdiqlash va amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom.
2. R.T. Gaziyeva «Suv xo'jaligida texnologik jaraènlarni avtomatlashtirish». Toshkent. 2007 y.
3. Xamidov M.X., Mamataliyev A.B. —Irrigatsiya va melioratsiyal. Toshkent. TIQXMMI. 2019. -210 bet.
4. Xamidov M.X., Shukurlayev X.I., Mamataliyev A.B. —Qishloq xo'jaligi gidrotexnika melioratsiyasil. Toshkent. Sharq. 2008. -408 bet.
5. Raximbayev F.M., Xamidov M.X. —Qishloq xo'jaligi melioratsiyasil. Tashkent. Mehnat. 1996. -328 bet.